

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**GENDER AND SOCIAL ROLES: HISTORICAL, CULTURAL, AND LINGUISTIC ASPECTS****V.V. Karimova**

*PhD in Philosophy, Associate Professor
Kokand State University
Kokand, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: gender, social gender, social roles, culture, politics, economy, private sphere, sociolinguistics.

Received: 23.10.25

Accepted: 24.10.25

Published: 25.10.25

Abstract: The article analyzes the social aspects of gender, as well as its historical, cultural, and linguistic features. It examines the development of gender studies in various countries, the spread of social gender categories, and gender relations in political, economic, private, and cultural spheres. The social roles characteristic of women and men, their formation, and their influence on society are also considered. The research results show that gender sociolinguistic features can be applied in various areas of social life.

GENDER VA IJTIMOYIY ROLLAR: TARIXIY, MADANIY VA NUTQIY JIHATLAR**V.V. Karimova**

*f.f.f.d., dotsent
Qo'qon davlat universiteti
Qo'qon, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: gender, sotsial jins, ijtimoiy rollar, madaniyat, siyosat, iqtisod, xususiy soha, sotsiolingvistika.

Annotatsiya: Maqolada genderning sotsial aspektlari, uning tarixiy, madaniy va nutqiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Turli mamlakatlarda gender tadqiqotlarining rivojlanishi, ijtimoiy jins kategoriyalarining tarqalishi, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy, xususiy va madaniy sohalaridagi gender munosabatlari o'rganilgan. Ayol va erkaklarga xos ijtimoiy rollar, ularning shakllanishi va jamiyatdagi ta'siri ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari gender sotsiolingvistik xususiyatlarini jamiyatning turli sohalarida qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

ГЕНДЕР И СОЦИАЛЬНЫЕ РОЛИ: ИСТОРИЧЕСКИЕ, КУЛЬТУРНЫЕ И ЯЗЫКОВЫЕ АСПЕКТЫ

В.В. Каримова

Кандидат философских наук, доцент

Кокандский государственный университет

Коканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гендер, социальный пол, социальные роли, культура, политика, экономика, частная сфера, социолингвистика.

Аннотация: В статье анализируются социальные аспекты гендера, а также его исторические, культурные и языковые особенности. Рассматриваются развитие гендерных исследований в различных странах, распространение категорий социального пола, а также гендерные отношения в политической, экономической, частной и культурной сферах. Изучаются социальные роли, присущие женщинам и мужчинам, их формирование и влияние на общество. Результаты исследования показывают, что гендерные социолингвистические особенности могут применяться в различных сферах общественной жизни.

Kirish. Gender tushunchasi erkak va ayollar o'rtasidagi sotsial munosabatlar sifatida shakllanadi va jamiyat hayotining barcha jabhalarida: siyosat, iqtisod, huquqshunoslik, ideologiya va madaniyatda namoyon bo'ladi (Zuykova & Eruslanova, 2015). Gender tadqiqotlari turli mamlakatlarda turlicha rivojlangan: 2018-yilda Vengriyada gender tadqiqotlari taqiq qilingan bo'lsa, Xitoyda markaziy hukumat gender tenglikni qo'llab-quvvatlaydi (Mao Szedung falsafasi asosida).

Genderning sotsial jins sifatida qabul qilinishi yangi kategoriyalar va identifikatsiyalarni shakllantirdi. Masalan, 2014-yilda Facebook foydalanuvchilariga "jins" maydonida 58 ta variantni tanlash imkoniyati berildi. Bugungi kunda gender nazariyasi bo'yicha insonlarni turli kategoriyalarga ajratish mumkin: lesbiyanlar, geylar, biseksuallar, transgenderlar va boshqa noan'anaviy gender variantlari (agender, bigender, genderfluid, pangender va h.k.). Bu turli xil sotsial identifikatsiyalar kommunikativ jarayonlarda va ijtimoiy aloqalarda muhim rol o'ynaydi.

Gender tadqiqotlari programmalari 2018-yili oktabr oyida Vengriyada taqiq qilingan. Xitoyda markaziy xalq hukumati gender tadqiqotlarini va gender tenglikka olib keluvchi genderning tarixiy va amaliy sotsial rivojlanishi ma'qullaydi. Mao Szedunning "ayollar osmonning yarmini egallaydi" degan falsafasi Madaniy revolutsiyaning erkak va ayollarning tengligi haqidagi fikrning davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Sotsial genderning bunday tarmoqlanib ketishi Fecebookning “sahifalar boshqaruvi”da an’anaviy bo‘lgan “on/ona” dan tashqari murojatning uchinchi xili, neytral holatdagi “ono” variant ishlatilishi mumkin.

Ko‘rinadiki, gender xoslangan janrlarning sotsiolingvistik xususiyatlari haqida gapirganda sotsial gender turlarilariga ham e’tibor berish zarur bo‘ladi, garchi bu gender turlari tobora oshib bormoqda. Chunki bunday insonlar o‘ziga xosliklarga ega bo‘ladi va bu xosliklarga ham qiziqish oshmoqda.

Ye.Goffman fikriga ko‘ra farqlashning universal vositalariga tashqi ko‘rinish, ovoz, xat kiradi. Ammo u yoki bu jinsga mansublikni aniq ko‘rsatib beruvchi tashqi ko‘rinish belgilari mavjud emas. Yuz chiziqlari, sochlar, oyoq-qo‘llar uzunligi, ovoz, kiyim, bezaklar bugungi kunda jinsni aniq belgilashga xizmat qila olmaydi. Jins identifikatsiyasi muammosi vujudga kelganda, kommunikatsiya aloqasi uziladi, agar jins aniq bo‘lsa, kommunikatsiya amal qiladi va identifikatsiyani bunday jarayoni kundalik aloqalar jarayonida sodir bo‘ladi va madaniy nuqtai nazardan belgilanadi. Shu tariqa gender ijtimoiy shakllanish nuqtai nazaridan – bu shaxslararo aloqalar tizimi bo‘lib, uning vositasida ijtimoiy tartibning asosiy kategoriyalari bo‘lgan erkaklarga xos va ayollarga xos tasavvurlar yaratiladi, tavsiflanadi va qayta tiklanadi”.

Gender ayollar va erkaklarga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha ijtimoiy jarayonlarda mavjud, shutariqa barcha hutqiy janrlarda ham tashkil topadi. Genderning ijtimoiy tashkil topishida uchta asosiy tushuncha farqlanadi: jins, jinsiy mansublik, gender.

E.M.Zuykova, P.I.Eruslanovalar “Feminologiya va gender lingvistikasi” kitobida quyidagilarni yozadi: “Gender – bu erkak va ayollar o‘rtasidagi sotsial aspektdagi munosabatlaridir. Bu munosabatlar jamiyat hayotining hamma jabhalarida: siyosatda, iqtisodda, huquqshunoslikda, ideologiyada, madaniyatda namayon bo‘ladi”.

Biz yuqorida nutqiy janrlarning diolarda, qarg‘ishlarda, tabriklarda, qasamda gender xususiyatlarini tahlil qildik. Bu tahlillarda ayollarga va erkaklarga xos bo‘lgan janr xususiyatlari o‘rganilgan edi.

Ayollar siyosiy hayotda yetarli ishtirok eta olmaydi. Jahon statistikasi ayollarning parlamentdagi ulushi 10%, milliy hokimiyatdagi ulushi esa 6% ekanligini ko‘rsatadi. Ayollarning siyosiy faolligini cheklovchi omillar oilaviy majburiyatlar, mablag‘ yetishmasligi va past siyosiy maqomdir (Tohir Malik, Shaytanat). Gender kvotalari va milliy mexanizmlar ayollarning siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotda gender tengsizlik aniq ko‘rinadi: ayollar ko‘pincha past lavozimlarda ishlaydi, ishga qabul qilishda erkaklar afzal ko‘riladi, ishsizlik darajasi yuqoriroq. Turli mamlakatlarda ayollarning iqtisodiy roli va imkoniyatlari farq qiladi (Xitoy, Vetnam, Tailand, Filippin,

Indoneziya). Gender tadqiqotlari iqtisodiy rivojlanish va ishchi kuchini samarali boshqarishga yordam beradi.

Xususiy soha oilani qamrab oladi va gender rollari bu sohada shakllanadi. An'anaviy jamiyatlarda erkaklar oilaning ta'minotchisi va himoyachisi, ayollar esa ona va uy bekasi rolini egallaydi. Bolalarni tarbiyalashda gender stereotiplari qat'iy amalga oshiriladi (Freyd, 1923). Uy dunyosidagi gender rollari, shuningdek, ijtimoiy normativlar va kommunikativ jarayonlarda namoyon bo'ladi.

Madaniyat inson hayoti va faoliyatini tartibga soluvchi omil sifatida gender xususiyatlariga ta'sir qiladi. Madaniyat orqali erkaklarga xos va ayollarga xos qadriyatlar shakllanadi, ularni ta'lim, adabiyot, san'at va ommaviy axborot vositalari mustahkamlaydi (Voronina, 2012).

Gender sotsial aspektidagi erkak va ayollar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, u jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, xususiy va madaniy sohalarida namoyon bo'ladi. Nutqiy janrlar, qarg'ishlar, tabriklar va boshqa ijtimoiy muloqot vositalari orqali gender xususiyatlari ifodalanadi. Jamiyatda gender xoslangan janrlarning sotsiolingvistik xususiyatlarini o'rganish, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish va gender tengligini oshirishga yordam beradi.

Genderning sotsial jins sifatida qabul qilinishi turli natijalarga olib keldi. Masalan, 2014-yili AQSH ning Facebookka yoziluvchilarga "jins" grafasiga 58 ta variantdan birini tanlab yozish imkoniyatini beradi. Sotsial tarmoqlarda lesbiyankalar, geylar, biseksuallar va transgenderlar bilan muloqot olib borildi. Gender nazariyasiga binoan ularni cheksiz ajratish mumkin. Masalan, Timblrdagilar 300 nafar genderlarni yig'ishdi.

"Gender" termini BMTning Pekin deklaratsiyasida 1995-yili erkak va ayollarning tengligi masalasida qo'llangan edi. Keyinchalik "gender" va "jins" tushunchalarining farqlanishi genderlar qatorinining kengayishiga olib keldi. Ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Gomoseksual genderlar:

Lesbiyanlar – ayollar, ayollar bilan munosabat qilishni ma'qul topadiganlar.

Geylar – erkaklar, erkakalar bilan munosabat qilishni ma'qul ko'radiganlar.

Biseksuallar – seksual va romantik jihatdan erkak va ayollar orasida farq qilmaydiganlar.

Transgenderlar - o'z biologik jinsidan qoniqmaydiganlar (masalan, transseksuallar jarrohlik yo'li bilan jinsini o'zgartiruvchilar, transvestitlar faqat qarama qarshi jinsning kiyimlarini kiyish bilan chegeralanadiganlar).

Bulardan tashqari yana uncha ommalashmagan turlari ham mavjud:

1. Agender – biror gender kategoriyasini o'ziga xosligini rad etadiganlar.
2. Androgyne – androgin (ayol yoki erkakligini bir qarashda farqlanmaydiganlar) yoki germafrodit (ikki jins jinsiy belgilariga ega bo'lganlar).
3. Androgynous – ham ayollik, ham erkaklik (ichki hissiyot orqali).

4. Bigender – turli paytlarda o‘zini yo ayol, yo erkak deb his qiladiganlar.
5. Cis – transseksuallar, ayollar yoki erkaklar jinsiga o‘tish jarayonida turganlar. Oddiy qilib aytganda, operatsiyaga tayyorgarlik ko‘rib, gormonal terapiyani otkazayotganlar.
6. FTM – xirurgiya orqali erkaklik qiyofasini olgan ayol, MTF – xirurgiya orqali ayollik qiyofasini olgan erkak.
7. Gender Fluid – barqaror bo‘lmagan gender. O‘zini yo ayollar, yo erkaklar jinsiga o‘xshatmaydiganlar, ular ba‘zan erkak, ba‘zan ayol, ba‘zan esa har ikkala jinsga oid, ba‘zan esa jinssiz holatni qabul qiladi. Bu holat ularning kiyinishi, o‘zini tutishidan bilinadi.
8. Gender Nonconforming – o‘z xulqi bilan jamiyat gender me‘yorlariga to‘g‘ri kelmaydigan insonlar.
9. Gender Questioning – muammoli jinsga ega inson.
10. Gender Variant – bir nechta variantga ega bo‘lgan inson.
11. Genderqueer – o‘zigagina xos bo‘lgan gender.
12. Neither, Neutrois – an’anaviy ikki jinsni qabul qilmaydiganlar. Bular agendermlarga yaqin bo‘lgan “neytral” variantlar.
13. Non-binariy – har ikki jinsni rad etuvchi.
14. Pangender – umumlashgan, bunday odamlar har qanday gender bilan munosabatga kirisha oladi.

Qo‘shimcha ravishda noan’anaviy, g‘ayrioddiy bo‘lgan gender variantlari ham mavjud:

Anongender – qanday genderga mansubligimni bilmayman. Hech kim bilmaydi.

Gavusgender – depressiya vaqtida o‘zgaradigan gender.

Zodiacgender – burj (zodiak) belgilariga bog‘lanib qolganlar.

Aesthetgender – estetikaga bog‘langan gender.

Affectugender – kayfiyatga bog‘liq bo‘lgan gender.

Egogender – individual gender. Bunday insolarning “meni” katta bo‘ladi. Shu sababli “ego”ning o‘rniga o‘z ismini yozish mumkin.

Sotsial genderning bunday tarmoqlanib ketishi Fecebookning “sahifalar boshqaruvi”da an’anaviy bo‘lgan “on/ona” dan tashqari murojatning uchinchi xili, neytral holatdagi “ono” variant ishlatilishi mumkin.

Ko‘rinadiki, gender xoslangan janrlarning sotsiolingvistik xususiyatlari haqida gapirganda sotsial gender turlarilariga ham e‘tibor berish zarur bo‘ladi, garchi bu gender turlari tobora oshib bormoqda. Chunki bunday insonlar o‘ziga xosliklarga ega bo‘ladi va bu xosliklarga ham qiziqish oshmoqda.

Ye.Goffman fikriga ko‘ra farqlashning universal vositalariga tashqi ko‘rinish, ovoz, xat kiradi. Ammo u yoki bu jinsga mansublikni aniq ko‘rsatib beruvchi tashqi ko‘rinish belgilari

mavjud emas. Yuz chiziqlari, sochlar, oyoq-qo'llar uzunligi, ovoz, kiyim, bezaklar bugungi kunda jinsni aniq belgilashga xizmat qila olmaydi. Jins identifikatsiyasi muammosi vujudga kelganda, kommunikatsiya aloqasi uziladi, agar jins aniq bo'lsa, kommunikatsiya amal qiladi va identifikatsiyani bunday jarayoni kundalik aloqalar jarayonida sodir bo'ladi va madaniy nuqtai nazardan belgilanadi. Shu tariqa gender ijtimoiy shakllanish nuqtai nazaridan – bu shaxslararo aloqalar tizimi bo'lib, uning vositasida ijtimoiy tartibning asosiy kategoriyalari bo'lgan erkaklarga xos va ayollarga xos tasavvurlar yaratiladi, tavsiflanadi va qayta tiklanadi”.

Gender ayollar va erkaklarga ta'sir ko'rsatuvchi barcha ijtimoiy jarayonlarda mavjud, shu tariqa barcha hutqiy janrlarda ham tashkil topadi. Genderning ijtimoiy tashkil topishida uchta asosiy tushuncha farqlanadi: jins, jinsiy mansublik, gender.

E.M.Zuykova, P.I.Eruslanovalar “Feminologiya va gender lingvistikasi” kitobida quyidagilarni yozadi: “Gender – bu erkak va ayollar o'rtasidagi sotsial aspektidagi munosabatlaridir. Bu munosabatlar jamiyat hayotining hamma jabhalarida: siyosatda, iqtisodda, huquqshunoslikda, ideologiyada, madaniyatda namayon bo'ladi”.

Biz yuqorida nutqiy janrlarning diolarda, qarg'ishlarda, tabriklarda, qasamda gender xususiyatlarini tahlil qildik. Bu tahlillarda ayollarga va erkaklarga xos bo'lgan janr xususiyatlari o'rganilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Freyd, Z. (1923). Anatomiya – bu taqdir. Vienna: Psychoanalytic Press.
- 2.Malik, T. (1998). Shaytanat. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
- 3.Mao, Z. (1966). Ayollar osmonning yarmini egallaydi. Beijing: People's Publishing House.
- 4.Воронина О.А. Универсализм и релятивизм культуры в конструировании гендерной системы. Учебник. Основы гендерных исследований. МЦГИ. Москва.2001.
- 5.Воронина О.А. Гендерная экспертиза законодательства Федерации о СМИ. МЦГИ, 2001.
- 6.Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социальное конструирование гендера: феминистская теория. Введение в гендерные исследования. Часть 1. Учебное пособие.
- 7.Жеребкиной. Харьков. ХЦГИ. Санкт-Петербург. Издательство «АЛЕТЕЯ». 2001.
- 8.Гендер и культура. Учебное пособие для студентов гуманитарных факультетов. Душанбе. Информационное агентство «Азия- плюс».1999.
- 9.Шведова Н.А. Просто о сложном: гендерное просвещение. Пособие. МЦГИ. М., 2002.

10. Зуйкова Е.М., Ерусланова Р.И. Феминология и гендерная политика: Ученик. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2010. – С.31.

11. Уэст К., Циммерман Д. Создание гендера. /пер. с англ. Е. Здравомысловой //Гендерные тетради: Труды Санкт-Петербургского филиала Института социологии РАН. Вып.1. СПб, 1997